

PAPER

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY EKSTREMAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Akramov Xusnitdin Muhitdinovich^{1,*} and Nuraliyev Abdulhamid Oybek o‘g‘li²

¹Namangan davlat universiteti professori

¹Namangan davlat universiteti stajyor o‘qituvchisi

*akarmovxusnitdin@gmail.com, nuraliyevkhamid@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolamizda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari, mashg‘ulotlar davomida ularning amaliy ko‘nikmalarini oshirish, qiyin sharoitda ishlashga tayyorlash, mustaqil fikrlash, ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, buning uchun turli amaliy mashg‘ulotlar, loyihalar, simulyatsiyalar, interaktiv usullar qo‘llaniladi, bu ularning pedagogik vaziyatlarga tez moslashuvchanligini ta‘minlaydi.

Key words: Ekstremal vaziyat, baxtsiz hodisa kasbiy-ekstremal kompetensiya, mashg‘ulotlar, trening, simulyatsiya, stressga bardoshlik, psixologik barqarorlik, gamifikatsiya, interaktiv texnologiyalar, muammoli vaziyat, qaror qabul qilish.

Kirish

Ma‘lumki, yangi jamiyatni qurish jarayonida uning barcha tashkil qiluvchi tomonlarini birdek o‘rganib, yagona maqsad sari harakat qilishimiz mamlakatimizga nisbatan yuksak e‘tirofimizni namoyon qiladi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida yuzaga kelayotgan favqulodda, noan‘anaviy va tahlikali vaziyatlar kasbiy ekstremal kompetensiyalarni shakllantirish masalasini dolzarb muammoga aylanib bormoqda.

Ayniqsa, pedagogika, tibbiyot, harbiy xizmat, favqulodda vaziyatlar, psixologiya, texnika kabi sohalar vakillaridan yuqori darajadagi ekstremal holatlarga tayyorgarlik talab qilinadi. Bugungi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy hayotda inson turli vaziyatlarga duch keladi umrimiz davomida qiyinchliklar, tashqi va ichki to‘siqlar va zo‘riqish, og‘ir ruhiy zarbalar kabi dolzarb muammolarga ko‘p duch kelamiz. Bunday vaziyatlarda insonlar tushkunlikka tushishi, stress, depressiya holatlariga tushib qolish ehtimoli yuqori.

Compiled on: March 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

Ekstremal vaziyatlarni o'rganish va ularga yechim izlashning muhimlik darajasi juda yuqori, bu holat ayniqsa, yoshlar orasida avjli pallaga aylanib bormoqda, global iqlim o'zgarishlari, texnogen va tabiiy ofatlar, ijtimoiy beqarorlik, xavfli kasalliklar va boshqa omillar o'quvchilarni real hayotdagi stressli vaziyatlarga tayyorlashni talab etmoqda. Auditoriya mashg'ulotlarda bilimlarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PF-185-son qarorini 11-bandida keltirilgan Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga uzluksiz tayyorlash va tarbiya-o'quv jarayonlariga singdirish bo'yicha e'tibor qaratilgan bundan shuni ko'rishimiz mumkinki talabalarda Ekstremal vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish dolzarbligicha qolmoqda, ushbu jarayonga doir xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar, hamda soha bo'yicha tadqiqot natijalari tahlil qilingan, Kasbiy-ekstremal kompetensiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va tarkibiy qismlari haqida bir qator pedagog olimlar (X. To'xtasinov, Z. Nishonova, T. Yusupova va boshqalar) tomonidan nazariy asoslar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada Ta'lim muassasalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar o'rganib chiqiladi, va sodir bo'lgan holatlarda harakatlanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasini baholash bo'yicha yondashuvlar o'rganildi, hamda Auditoriyadagi faoliyatlarlar - amaliy mashg'ulotlar, treninglar, simulyatsiyalar, interaktiv mashg'ulotlar - orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, hissiy barqarorlikni saqlash, jamoada ishlash kabi ko'nikmalar rivojlanishini tahlil qilinadi.

Natijalar va ularning tahlili

Zamonaviy ish beruvchilar nafaqat professional bilim, balki ekstremal sharoitda qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish, stressga chidamli bo'lish kabi kompetensiyalarni ham talab qilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar bugungi kunda nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki yosh avlodni hayotga tayyorlash, ularni mustaqil, mas'uliyatli, barqaror va innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish uchun muhim vositadir. Bu jarayonda ta'lim texnologiyalarining integratsiyasi, shaxsiy yondashuv, ijtimoiy-psixologik muhitni hisobga olish kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini shakllantirish masalasi so'nggi yillarda ta'lim tizimida alohida e'tibor markazida turibdi. Ayniqsa, noan'anaviy, favqulodda holatlarga tayyor bo'lgan, stressga bardoshli, muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qila oladigan shaxsni tarbiyalash zamonaviy kasb egalari uchun zaruriy ehtiyojga aylangan. Shu bois ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda.

Stress holatlarida o'quvchilarning emotsional barqarorligi, moslashuvchanligi, xavfli vaziyatlardagi xatti-harakatlari psixologik yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasida o'quvchilarda ekstremal vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha trening mashg'ulotlari, rolli o'yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv usullar qo'llanilgan.

– Mashg'ulot faoliyatlarining samaradorligini o'rganishga doir eksperimentlar olib borilgan bo'lib, ularning natijalari ijobiy baholangan.

Kasbiy-ekstremal kompetensiyalar — zamonaviy ta'limda ixtisoslashgan va real hayotga mos ko'nikmalar majmui bo'lib, ularni shakllantirish orqali samaraliroq amalga oshiriladi.

Bunday texnologiyalar interaktivlik, emotsional jalb qilish, ijtimoiy muhitga moslashish imkoniyatlari bilan ajralib turadi va o'quvchini faol subyektga aylantiradi.

Kelgusida bu soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish, texnologik yangiliklarni joriy etish va tajriba almashinuvi orqali kompetensiyalarni rivojlantirish darajasini oshirish zarur.

Baxtsiz hodisa – to'satdan oldindan anglamagan va insonlarning hohishsiz yuz bergan turli tabiiy ofat, avariya va boshqa ko'ngilsiz hodisalar oqibatida

badanga shikast yetish, mayib bo'lish yoki o'lish hollari, 2025-yilda mehnat faoliyati bilan bog'liq baxtsiz hodisalar Davlat mehnat inspeksiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 849 ta baxtsiz hodisa qayd etilgan. Shundan 50 tasi guruhli sodir bo'lgan, 583 tasi og'ir oqibatlariga olib kelgan, 216 tasi esa o'lim bilan tugagan. Baxtsiz hodisalarda 680 kishi og'ir, 33 kishi yengil jarohat olgan bo'lsa, 248 kishi halok bo'lgan. Eng ko'p baxtsiz hodisalar qurilish (234 ta), yengil sanoat (47 ta) va transport (37 ta) sohalarida yuz bergan, shundan ko'rinib turibdiki ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va harakatlanish baxtsiz hodisalarni sonini kamaytirib bordi shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarga auditoriyadan tashqari treninglar o'tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ekstremal holatlarda harakat qilishni o'rgatishga mo'ljallangan trening dasturlari, maxsus stsensariyli mashg'ulotlar, virtual simulyatsiyalar va gamifikatsion platformalar ishlab chiqilgan.

– O'quvchilarda muammoli holatlarni hal qilish, tezkor fikrlash, stressga chidamlilikni oshirishga qaratilgan metodik qo'llanmalar mavjud.

– Magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarida mashg'ulotlar orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish muammolari yoritilgan, ammo "kasbiy-ekstremal kompetensiya" atamasi doirasida maxsus chuqur tahlillar hali yetarli emas.

Bugungi kungacha o'quvchilarning kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-nazariy asoslar yaratilgan, amaliy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, bu soha hali to'liq o'rganilgan deb bo'lmaydi. O'quvchilarning kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon real hayotga yaqin sharoitlarda samarali tashkil etilishi bilan ahamiyatlidir. Ekstremal kompetensiyalar deb, insonning favqulodda, xavfli, stressli yoki noaniq vaziyatlarda oqilona harakat qila olishi, to'g'ri qaror qabul qilishi, psixologik barqarorlikni saqlab qolishi, kasbiy faoliyatga sodiq qolishi kabi fazilatlarini tushuniladi.

Bunday kompetensiyalarni rivojlantirishda mashg'ulotlar – treninglar, rolly o'yinlar, simulyatsiyalar, interaktiv amaliy mashg'ulotlar, ekstremal sharoitdagi ssensariyli loyihalar muhim o'rin tutadi. Bu texnologiyalar o'quvchilarda

mustaqil fikrlash, ijtimoiy moslashuv, jamoada ishlash, qaror qabul qilish va emotsional nazorat kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Shuningdek, o'quvchilarni bunday faoliyatlarga jalb qilish ularning kasbiy o'sishini jadallashtiradi, mehnat bozorining real ehtiyojlariga tayyorlab boradi.

Xulosa

Ekstremal va favqulodda vaziyatlar inson hayotining barcha sohalarida sodir bo'ladi. Har bir inson hayoti davomida o'zi uchun o'ta og'ir bo'lgan bir qator vaziyatlarga ega. Shuning uchun har kim favqulodda vaziyatda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga muhtoj. Mamlakatimizning yuksalishi yoshlarning qo'lida ekan, biz ularning ham jismonan ham ruhan sog'lom bo'lib kamolga yetishlariga alohida e'tibor berishimiz kerak. Nafaqat yoshlarga balki, barcha aholiga ekstremal vaziyatlarda muammoning to'g'ri yechimini topishlarida ko'maklashishimiz va ularni ruhan pok inson bo'lishlarida bir vosita bo'lmog'imiz lozim. Bizning izlanishlarimiz va tadqiqotlarimizning negizida ham shu maqsad yotadi.

References

1. Yusupova T. Ekstremal sharoitlarda ta'lim samaradorligi. – Andijon: 2021.
2. Klyucharyov A.I. —Ekstremal pedagogika asoslari – Moskva: 2018.
3. UNESCO. Education in emergency situations. – Paris: 2020.
4. Imamova Shafolat Mahmudovna. A Simulation Trainer's Educational Competence In The Process Of Forming Students' Professional Competence// International Journal On Integrated Education Volume 6, Issue 9, Sep-2023
5. Drujinin V.M "Eksperimentalnaya psixologiya". Piter. 2001y.
6. Akramov Kh.M. "Fire resistant properties of construction structure."Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) 9.5 (2020): 415-419.

7. Акрамов Х.М. "Огнестойкие свойства строительных конструкций." Наука, техника и образование 2 (66) (2020): 56-59.
8. Akramov Kh.M. "PROBLEMS OF MODERN CONSTRUCTION IN THE CONDITIONS OF NAMANGAN." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.2 (2021): 156-160.
9. Akramov Kh.M. and Sayfitdinov A.S. "Organization of the special course "culture of safe life" in professional schools of Uzbekistan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 724-729.